

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT ISHLARI VAZIRLIGI
USLUBIYAT VA AXBOROT RESPUBLIKA MARKAZI

SHAVKAT RAHIMOV

DUIOR

Musiqa va san 'at maktablari uchun o 'quv qo 'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining madaniyat va san'at sohasi bo'yicha
o'quv-uslubiy kengashi nashrga tavsiya etgan*

Mas'ul muharrir:

A. LUTFULLAYEV — O'zbekiston davlat konservatoriyasining
professor v. b.

Taqrizchilar:

X. N. NURMATOV — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universitetining professori, M. IBRAGIMOVA —

Yu. Rajabiy nomli musiqa pedagogika kolleji «O'zbek
xalq cholg'ulari» bo'limi o'qituvchisi.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqa va san'at maktablari o'quvchilari
uchun mo'ljallangan. Undan mflliy dutor, alt dutor va prima dutori
cholg'usi uchun moslashtirilgan o'zbek xalq kuylari hamda jahon
kompozitorlarining asarlari o'rin olgan.

Rahimov Shavkat. Dutor darsligi: Musiqa va san'at kollejlari hamda liseylari
uchun darslik. - T., 2004.106b.

©Shavkat Rahimov, 2004 y.

MUALLIFDAN

Yosh avlodni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash, qadriyatlarimizni va milliy musiqa madaniyatimizni har qachongidan chuqurroq o'rganish, hamda xalqimizning o'zligini anglash, o'z urf-odatlarini saqlay bilishi, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo'lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg'uchilik san'ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dutor nafaqat O'zbekistonda, O'rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg'uda milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin.

O'zbekistonda taniqli sozandalardan Orif Qosimov, Turg'un Alimatov, Abdusamad Ilyosov, G'ulom Qo'chqorov, Boqijon Rahimjonov, Abdurahim Hamidov, Ro'zibi Hojiyeva, Sulton Qosimov singari mohir sozandalar dutorni xalqimiz ichida yanada sevimli va ommaviy bo'lishida katta hissa qo'shdilar.

Dutorda asarlarni mustaqil o'rganish va ularni ongli ravishda o'zlashtirish, ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo'ladi.

Bu darslik talaba yoshlarning badiiy repertuarlarini yanada boyitadi va ijrochilik mahoratini oshirishga

yordam beradi, degan umiddamiz.

;

Milliy dutorga tor taqiladi. Dutorning birinchi tori «re» (kichik oktava) tovushiga, ikkinchi tori «lya» (kichik oktava) tovushiga, bundan tashqari asar ijro etilishiga qarab, ikkinchi tori «sol» (kichik oktava) tovushlariga sozlanishi mumkin, ba'zi vaqtlarda esa, ikkala tor ham unsonga, ya'ni bir xil tovushga sozlanishi mumkin.

Alt dutorining birinchi tori «lya» (birinchi oktava) tovushiga, ikkinchi tori «mi» (birinchi oktava) tovushiga, bundan tashqari qanday asar ijro etilishiga qarab , ikkinchi tor «re» (birinchi oktava) tovushlariga sozlanadi.

Alt dutor sozi

'''

Prima dutorining birinchi tori «lya» (ikkinchi oktava) tovushiga , ikkinchi tori «mi» (ikkinchi oktava) tovushiga, qanday asar ijro etilishiga qarab, ikkinchi tor «re» (ikkinchi oktava) tovushlariga ham sozlanadi.